

EDUCOIN ILOVASIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Ommaviy Oferta “Alicoder” Mas’uliyati Cheklangan Jamiyati (keyingi o‘rinlarda — **Ma’muriyat**) tomonidan ishlab chiqilgan **EduCoin** mobil ilovasidan foydalanish shartlarini belgilaydi.
- 1.2. EduCoin — ota-onalar (yoki mas’ul shaxslar) va farzandlar o‘rtasida vazifalar, rag‘batlantirish va sovg‘alar tizimini tashkil etish uchun mo‘ljallangan raqamli platformadir.
- 1.3. Ilovani yuklab olish, ro‘yxatdan o‘tish va undan foydalanish orqali foydalanuvchi ushbu Oferta shartlariga **to‘liq rozilik bildiradi**.

2. ISHTIROKCHILAR

- 2.1. **Ota-ona (Mas’ul shaxs)** — farzandga vazifa belgilovchi, coin beruvchi va sovg‘alarni taqdim etuvchi shaxs.
- 2.2. **Farzand (Bola)** — ota-ona tomonidan berilgan vazifalarni bajaruvchi va coinlar evaziga sovg‘a oluvchi foydalanuvchi.
- 2.3. EduCoin platformasidan foydalanish **har qanday ota-ona va bola** uchun ochiq bo‘lib, ta’lim markazida o‘qishi shart emas.

3. EDUCOIN (COIN) TIZIMI

- 3.1. EduCoin (coin) — platforma ichidagi shartli raqamli birlik bo‘lib:
 - real pul,
 - elektron pul,
 - kriptovalyuta hisoblanmaydi.
- 3.2. Coinlar ota-ona tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadi va farzandga vazifalarni bajargani uchun beriladi.
- 3.3. Coinlarni naqdlashtirish, pulga almashtirish yoki uchinchi shaxslarga o‘tkazish **mumkin emas**.

4. VAZIFALAR VA SOVG‘ALAR

- 4.1. Ota-ona farzandiga:
 - kundalik yoki maxsus vazifalar,
 - uy ishlari,
 - ta’limiy yoki tarbiyaviy topshiriqlar belgilashi mumkin.
- 4.2. Farzand bajarilgan vazifalar evaziga ota-ona tomonidan belgilangan coinlarni oladi.
- 4.3. Sovg‘alar:
 - ota-ona tomonidan mustaqil belgilanadi;
 - ota-onaning o‘z mablag‘i va qaroriga asoslanadi.
- 4.4. **Ma’muriyat (Alicoder MChJ):**
 - sovg‘ani berish yoki bermaslik,
 - sovg‘aning sifati,
 - yetkazib berilishi uchun **javobgar hisoblanmaydi**.

5. PLATFORMA VAZIFALARI

- 5.1. EduCoin platformasida ixtiyoriy **platforma vazifalari** mavjud bo'lishi mumkin.
- 5.2. Ushbu vazifalarni bajarish orqali foydalanuvchilar Ma'muriyat tomonidan taqdim etiladigan sovg'alar yoki bonuslarda ishtirok etishi mumkin.
- 5.3. Platforma sovg'alari:
- cheklangan miqdorda,
 - aksiya yoki promo shartlari asosida taqdim etiladi va majburiy hisoblanmaydi.

6. JAVOBGARLIKNI CHEKLASH

- 6.1. Ma'muriyat quyidagilar uchun javobgar emas:
- ota-ona va bola o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
 - sovg'aning berilmasligi;
 - sovg'a sifati yoki qiymati;
 - ota-onaning va'dalari bajarilmasligi.
- 6.2. EduCoin platformasi faqat **texnik va axborot vositasi** sifatida xizmat qiladi.

7. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

- 7.1. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari amaldagi qonunchilikka muvofiq himoyalanganadi.
- 7.2. Shaxsiy ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilmaydi, **faqat quyidagi holatlar bundan mustasno:**
- qonuniy talab mavjud bo'lsa;
 - davlat organlarining rasmiy so'rovi asosida.

8. TA'QIQLANGAN VAZIFALAR VA MAZMUN UCHUN JAVOBGARLIK

- 8.1. Ota-ona tomonidan farzandga beriladigan vazifalar **to'liq ota-onaning shaxsiy mas'uliyati** hisoblanadi.
- 8.2. Quyidagi mazmundagi vazifalarni berish **taqiqlanadi:**
- noqonuniy harakatlar bilan bog'liq topshiriqlar;
 - zo'ravonlik, haqorat, kamsitish;
 - hayot va sog'liq uchun xavfli vazifalar;
 - axloqsiz yoki yoshga mos kelmaydigan topshiriqlar;
 - firibgarlik yoki yolg'on ma'lumot bilan bog'liq vazifalar.
- 8.3. Farzand vazifani bajarish jarayonida:
- taqiqlangan rasm, video yoki audio,
 - noqonuniy materiallar,
 - uchinchi shaxslarning huquqlarini buzuvchi ma'lumotlar yuklagan taqdirda, **buning uchun EduCoin platformasi javobgar emas.**
- 8.4. EduCoin platformasi:
- vazifalar mazmunini oldindan tekshirmaydi;
 - foydalanuvchilar yuklaydigan ma'lumotlarni doimiy nazorat qilmaydi.
- 8.5. Qoidalar buzilgan taqdirda Ma'muriyat:
- mazmunni o'chirish;
 - foydalanuvchi akkauntini vaqtincha cheklash yoki bloklash huquqiga ega.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Ma'muriyat ushbu Ofertaga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. O'zgartirishlar ilovada e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi.

9.2. Ushbu Oferta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

Ilovadan foydalanish orqali siz ushbu Ommaviy Oferta shartlariga rozilik bildirasiz.

Ma'muriyat:

“Alicoder” MChJ

EduCoin platformasi